

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.D.Baxronov</b>	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'рни.....	201
<b>H.S.Ergashev</b>	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi .....	207
<b>I.T.Boltaboyev</b>	
Temuriylar davri mutaffakirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'рни.....	212
<b>Sh.O'.Ahrorova</b>	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'рни.....	216
<b>U.X.Xolmatov</b>	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari .....	220
<b>F.B.Rahmonova</b>	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili .....	225
<b>J.Saburov</b>	
Buxoro amirligida tasvuf ilmi uzviyligi va ijtimoiy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri ....	230
<b>B.A.Pulatov</b>	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari .....	236
<b>S.S.Evatov</b>	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
<b>A.Sh.Raximov</b>	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi .....	245
	SIYOSAT
<b>Sh.Ismoilov</b>	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalish .....	249
<b>D.Sh.Mahkamov</b>	
Hakamlik sudi va davlat sudlari o'rtasidagi farqlar .....	252
<b>R.Nurimbetov</b>	
Shanxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari .....	255
<b>B.X.Allamurodov</b>	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan) .....	258
<b>M.B.Nabiyev</b>	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
<b>N.Madumarova</b>	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida .....	269
<b>A.A.Buriyev</b>	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'рни va bu boradagi xorijiy tajriba .....	273
<b>D.Mamadjonova</b>	
Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari .....	277
<b>A.A.Ahrorqulov</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
	TARIX
<b>Бурҳониддин Чалодиддин</b>	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
<b>M.T.Musaev</b>	
Globalashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi .....	292
<b>R.A.Arslonzoda</b>	
Отражение литературной жизни Бухары в “воспоминаниях” Садриддина Айни .....	297



UO‘K:347.18.347.19

**NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH****ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НЕПРАВИТЕЛЬСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ****LEGAL REGULATION OF THE ACTIVITIES OF NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS**

**Ahrorqulov Anvar Anvarovich**   
Huquq ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Bu maqola notijorat tashkilotining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati to'g'risidagi fikrlar ilgari surilgan. Jamiyatda nodavlat notijorat tashkilotlari muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Uni puxta o'zlashtirish orqali – notijorat tashkilotlari, ularning tashkiliy-huquqiy asoslari, jamiyat siyosiy tizimidagi o'rni, ahamiyati, notijorat tashkilotlarining shakllari, ularga a'zo bo'lish tartibi haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.*

**Аннотация**

*В данной статье представлены представления о роли и значении некоммерческих организаций в обществе. Неправительственные некоммерческие организации являются одним из важных звеньев общества. Внимательно его освоив, можно получить информацию о некоммерческих организациях, их организационно-правовых основах, их месте в политической системе общества, их значении, формах некоммерческих организаций и порядке их членства.*

**Abstract**

*This article presents ideas about the role and importance of non-profit organizations in society. Non-governmental non-profit organizations are one of the important links in society. Having carefully mastered it, you can obtain information about non-profit organizations, their organizational and legal foundations, their place in the political system of society, their significance, forms of non-profit organizations and the order of their membership.*

**Kalit so'zlar:** notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmasi, ijtimoiy himoya, fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar

**Ключевые слова:** некоммерческие организации, общественные объединения, профсоюз, социальная защита, гражданские, политические, экономические, социальные и культурные права

**Key words:** non-profit organizations, public associations, trade union, social protection, civil, political, economic, social and cultural rights

**KIRISH**

Jahonda nodavlat notijorat tuzilmalari, fuqarolar va yuridik shaxslarning ixtiyoriy birlashmalari orqali o'z huquqi va erkinliklarini amalga oshirish, mulkiy va shaxsiy nomulkiy manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Notijorat tashkilotlarini vujudga kelish asoslari va usullari, ularning turlari va faoliyat maqsadlari, huquq subyekti sifatidagi tutgan o'rni yurisprudensiyaning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Bugungi kunda dunyoda notijorat tashkilotlarining ko'plab turlari: xalqaro nodavlat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, notijorat tashkilotlari kabi turlari amal qiladi.

Jahonda notijorat tashkilotlari demokratik insitutlar qatoriga kirishi bilan birga, yuridik shaxslarning alohida turi sifatida e'tirof etiladi. Bunda notijoratlar tashkilotlarini tashkil etish, ro'yxatdan o'tkazish, huquqiy maqomini belgilash, faoliyatining asosiy yo'nalishlari va fuqarolik-huquqiy javobgarligini aniqlash huquqiy tadqiqotlar obyektida qaraladi. Shuningdek, notijorat tashkilotlarining mol-mulkini shakllantirish usullari va shartlari, ularni qayta tashkil etish va tugatish masalalarini o'rganish ham ilmiy muammolar va ular yechimlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, notijorat tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi, ularning universal yoki maxsus huquq layoqati, turlarga ajratish mezonlari va tasniflanishi fuqarolik huquqida ilmiy izlanishlar predmeti hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati umumiy tartibda – O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi. Maxsus qonunlarga “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonun, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonun, “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlarni misol qilish mumkin.

“Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasida nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir.

Berilgan ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, NNTlar faoliyati uchun davlatdan ajratilganligi, ixtiyoriylik, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tganligi, foйда olishni maqsad qilmaganligi, o‘zini o‘zi boshqarish kabi xususiyatlar xos ekan.

Albatta, jismoniy va yuridik shaxslarning o‘zaro birlashuvi o‘z-o‘zidan nodavlat notijorat tashkilotiga aylanib qolmaydi. Ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgandan so‘nggina NNT maqomiga ega bo‘ladi. Ularning faoliyati muassislar (a‘zolar) tomonidan tasdiqlangan ustav va qatnashchilar tomonidan tuzilgan ta‘sis shartnomasi asosida tartibga solinadi.

Bundan tashqari, muayyan NNT turlari uchun qonunchilikda ro‘yxatdan o‘tish shartlari belgilab qo‘yilgan. Masalan, diniy tashkilot O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan va O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo‘lmagan fuqarolari tashabbusi bilan tuziladi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

#### NNTlar maqsadlari

Har qanday tijorat tashkilotining maqsadi daromad olishdir. Boshqacha qilib aytganda, ular o‘z manfaati uchun ishlaydi. Biroq, asosiy maqsadi jamiyatga xizmat qilish, ya‘ni umuman jamiyat manfaati uchun ishlaydigan tashkilotlar bor. Bular nodavlat notijorat tashkilotlaridir.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning maqsadi umuman jamiyatda, hududda, mamlakatda va hatto global miqyosda boshqalarning hayot sifatini yaxshilashdir. Ushbu tashkilotlar faoliyati shaxsiy yoki moliyaviy manfaatlarga emas, balki jamoat manfaatlarini ilgari surishga qaratilgan.

A‘zolarining maqsadlari turlicha: o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy maqsadlarga erishish, ma‘naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlar (kasalliklarni tadqiq qilish, gumanitar yordam, ta‘limni moliyalashtirish) bo‘lishi mumkin.

Maqsadlaridan kelib chiqib, NNTlar jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond, muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqa shaklda tashkil etilishi mumkin. Masalan, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar shular jumlasidandir. Nodavlat notijorat tashkiloti qonun bilan taqiqlanmagan hamda o‘zining ta‘sis hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiq bo‘lgan faoliyatning har qanday turini amalga oshiradi.

#### NNTlarning ahamiyati

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati, avvalo, ularning maqsadlari davlat oldida turgan muammolarni hal qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. YA‘ni NNTlar davlat hokimiyati organlari e‘tiboridan chetda qolishi mumkin bo‘lgan masalalarni yoritadi, davlat organlariga ushbu muammolarni hal qilishda yordam beradi va hatto ularning faoliyatini nazorat qiladi.

Shuningdek, NNTlar ijtimoiy muammolarni hal qilishda davlat boshqaruviga qaraganda samaraliroq va kamroq xarajatlarni o‘z ichiga olgan aniq yechimlarni taklif qila oladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining quyidagi vazifalari ularning ahamiyatini oshiradi deyish mumkin:

- \* fuqarolarni (iste‘molchilarni) tijorat subyektlari bilan bo‘lgan munosabatlarda himoya qiladi;
- \* fuqarolarni jamiyat hayotida ishtirok etishga chaqiradi;
- \* davlat muassasalari va davlat boshqaruvi organlari xodimlarining turli xil ehtiyojlari va manfaatlarini birlashtiradi;

## SIYOSAT

- \* guruhlar va shaxslarni ijtimoiy va siyosiy integratsiya jarayonlariga kirishiga hissa qo'shadi;
- \* turli etnik millatlar mavjud bo'lgan jamiyatlarda xilma-xillikni targ'ib qilishda, etnik ziddiyatlarning oldini olishda va millatlararo muloqotda qatnashadi;
- \* jamiyatda fikrlar xilma-xilligini ta'minlaydi;
- \* jamoatchilik qarorlarini sezilarli darajada takomillashtiradi (masalan, turli qonun loyihalari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish);
- \* ijtimoiy sohani rivojlantirishda, jumladan, atrof-muhitni himoya qilish, ta'limni isloh qilish jarayonlarida faol qatnashadi;
- \* jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi va shu kabilar.

Ko'rinib turibdiki, NNTlar orqali jismoniy va yuridik shaxslar o'z demokratik qarashlarini ifoda etish, huquq va manfaatlarini himoya qilish, qiziqishlarini amalga oshirish, boshqa fuqarolarga yordam ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi. Hukumat ham o'z vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda NNTlarga tayanadi. Ular yordamida mamlakatning rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga ko'mak beradi, muayyan fuqarolar toifalarini rag'batlantiradi, xalq bilan muloqotga kirishadi va h.k.

#### Respublikamizda NNTlar faoliyati

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishga, fuqarolik jamiyatining institutlari bo'lgan tuzilmalar — siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Ta'kidlash kerakki, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish ko'p jihatdan nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lmoqda. Shu sababli bugungi kunda mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Natijada ularning soni yildan yilga o'sish bilan birga faoliyat ko'rsatish sohalari ham kengayib bormoqda. Masalan, 1991-yilda respublikada 100 ga yaqin NNTlar mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib ularning soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarning turli yo'nalishlarida, xususan, tadbirkorlik rivojlantirish sohasida – 2 000 dan ortiq, ekologiyani asrash sohasida – 100 dan ortiq, sportni rivojlantirish sohasida – 1200 dan ortiq, imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasida – 600 dan ortiq, yoshlarni qo'llab-quvvatlash sohasida – 600 dan ortiq, ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilishda – 300 dan ortiq, faxriylarni qo'llab-quvvatlash sohasida – 400 dan ortiq, milliy madaniy aloqalarni va millatlaro do'stlikni rivojlantirish sohasida – 200 dan ortiq, xodimlarning huquqlarini himoya qilish sohasida – 570 dan ortiq, ta'lim, fan va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish sohasida – 240 dan ortiq, sog'liqni saqlash sohasida – 220 dan ortiq, OAV va jurnalistikani rivojlantirish sohasida – 30 ga yaqin, madaniyat, tarix va ma'rifat sohasida ham bir qancha NNTlar va uning hududiy bo'limlari mavjud[1].

So'nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash, davlat organlari va ular o'rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida izchil ishlar olib borildi.

Xususan, oxirgi to'rt yilda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining 1 270 dan ortiq loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Davlat budjetidan 117 milliard so'm miqdordagi mablag'lar ajratilgan.

Qonunchilikda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun turli imtiyozlar ham nazarda tutilgan. Xususan, qonunchilikka muvofiq, nodavlat notijorat tashkilotlari o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda davlat boji to'lashdan ozod etilgan.

Shuningdek, Soliq kodeksiga asosan, NNTlar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'laridan ozod etilgan.

#### XULOSA

Xulosa o'rnidan aytish mumkinki, notijorat sektorining muhim vazifasi — ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash, fuqarolarga davlat siyosatiga ta'sir qilish imkoniyatini berish, hukumat siyosatini tanqid qilish va kuzatib borishdir. Bunda nodavlat tashkilotlar jamiyatning ijtimoiy muammolarini

aniqlash va hal qilishda, inson va moliyaviy resurslarni jalb qilishda, davlat siyosati samaradorligi darajasini baholashda o'z ahamiyatini namoyish etadi.

Shu sababli nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosati oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 5-son, 115-modda / <https://lex.uz/docs/11360>
2. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 1-2-son, 2-modda; 2008 y., 51-son, 500-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi.1997. –№2. –36-modda.
4. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni //O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991. –№4, –76-modda.
5. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. 1999. –№5. –110-modda.
6. Akhrorqulov, A. (2020). Non-Profit Organizations: Legislation Reform And Law Enforcement Practice. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 2(10), 129-134.
7. Gulyamov, S., & Akhrorqulov, A. (2022). Notijorat tashkilotlar faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari: milliy va xorijiy tajriba. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 1029-1041.
8. Akhrorqulov, A. (2022). Notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish masalalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 893-902.
9. Akhrorqulov, A. (2020). Issues of formation and registration of non-profit organizations. Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19), 1(02), 23-26.
10. Mamajonova, D. (2022). Konstitutsiyaviy islohotlar–xalq manfaatining asosiy mezon. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 688-693.